AFG‘ONISTONDA ETNIK OMILNING FUQAROLAR URUSHIDAGI O‘RNI

Normamatov Ergash Orif o‘g‘li
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi
“Sharq mamalakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasi
“Tarix” yo‘nalishi 1-kurs magistranti
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0008-2918-6466)
E-mail: ergashnormamatov002@gmail.com [887970217]
Ilmiy rahbar: Dotsent. (PhD) ***A.X. Xudoyberdiyev***

Annotatsiya: Mazkur maqolada Afg‘onistondagi fuqarolar urushining transformatsiyasi va unda etnik o‘zlikni anglash omilining dinamikasi tadqiq etiladi. Tadqiqotda ta’kidlanishicha, Afg‘onistondagi mojarolar faqatgina diniy yoki mafkuraviy xarakterga ega bo‘lmay, balki davlat resurslari va siyosiy hukmronlik uchun kurashayotgan etnik guruhlarning manfaatlariga tayanadi.[5.14] Maqolada 1990-yillardagi “etnik urushlar” davri va 2021-yilda “Tolibon” harakatining hokimiyatga qaytishi bilan bog‘liq jarayonlar qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada etnik xilma-xillikni siyosiy boshqaruvda inobatga olmaslik davlatning barbod bo‘lishiga (failed state) olib keluvchi asosiy omil ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Maqolaning xulosasida Afg‘onistondagi uzoq muddatli barqarorlikning yagona kafolati sifatida barcha etnoslarning madaniy va siyosiy huquqlari himoyalangan “inklyuziv davlat” modeli taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Afg‘oniston, fuqarolar urushi, etnik omil, etnosiyosiy mojaro, pushtunlar, Shimoliy ittifoq, inklyuziv hukumat, siyosiy barqarorlik, etnik identifikatsiya, geosiyosiy ta’sir.

THE ROLE OF THE ETHNIC FACTOR IN THE CIVIL WAR IN AFGHANISTAN

Abstract: This article examines the transformation of the civil war in Afghanistan and the dynamics of the ethnic identity factor within this context. The study argues that conflicts in Afghanistan are not merely ideological or religious in nature but are deeply rooted in the interests of ethnic groups competing for state resources and political hegemony. [5.14] The research provides a comparative analysis of the “ethnic wars” period in the 1990s and the processes following the Taliban's return to power in 2021. The author scientifically demonstrates that the failure to integrate ethnic diversity into political governance is a primary factor leading to state collapse (the “failed state” phenomenon). The article concludes by proposing an “inclusive state” model, where the cultural and political rights of all ethnicities are protected, as the only guarantee for long-term stability in Afghanistan.

Keywords: Afghanistan, civil war, ethnic factor, ethnopolitical conflict, Pashtuns, Northern Alliance, inclusive government, political stability, ethnic identity, geopolitical influence.

KIRISH

Afg‘oniston o‘zining geografik joylashuvi va etnik xilma-xilligi bilan Markaziy va Janubiy Osiyoning eng murakkab nuqtalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Mamlakatning “sivilizatsiyalar chorrahasi” sifatida shakllangan demografik manzarasi, bir tomondan boy madaniy merosni anglatsa, ikkinchi tomondan uzoq yillik siyosiy beqarorlik va fuqarolar urushining asosiy o‘choqlaridan biriga aylandi. Afg‘onistondagi mojarolarni tahlil qilishda ko‘pincha mafkuraviy qarama-qarshiliklar yoki tashqi aralashuvlar birinchi o‘ringa chiqsa-da, aslida ichki dinamikani harakatga keltiruvchi eng kuchli drayver - bu etnik omil hisoblanadi.[1.18]. Tarixan Afg‘oniston davlatchiligi pushtun qabilalarining siyosiy gegemonligi ostida shakllangan bo‘lib, bu holat boshqa etnik guruhlar - tojiklar, o‘zbeklar va hazoralarning siyosiy jarayonlardan chetda qolishiga yoki marginalizatsiyasiga olib kelgan. XX asrning ikkinchi yarmida sodir bo‘lgan geosiyosiy o‘zgarishlar, xususan, Sovet qo‘shinlarining kirishi va undan keyingi mujohidlar harakati an’anaviy ijtimoiy iyerarxiyani butunlay parchalab yubordi. Natijada, hokimiyat uchun kurash endi faqat g‘oyalar o‘rtasida emas, balki aniq etnik chegaralarga ega bo‘lgan qurolli guruhlar o‘rtasida kecha boshladi. Afg‘onistondagi fuqarolar urushida etnik identifikatsiyaning siyosiylashuvi shunday darajaga yetdiki, hatto diniy birdamlik (islom omili) ham etnik manfaatlarni jipslashtirishda ikkinchi darajali vositaga aylanib qoldi.

ASOSIY QISM:

1.1 Afg‘onistonda etnik identifikatsiyaning shakllanishi va davlatchilik iyerarxiyasi. Afg‘onistonda etnik identifikatsiya muammosi shunchaki demografik ko‘rsatkich emas, balki davlat qurilishi va hokimiyatni taqsimlashning fundamental asosidir. Mamlakat tarixida etnik guruhlarning shakllanishi va ularning davlat iyerarxiyasidagi o‘rni uzoq davom etgan murakkab geosiyosiy va ijtimoiy jarayonlarning mahsulidir.

Afg‘onistonda zamonaviy davlatchilik 1747-yilda Ahmadshoh Durroniy tomonidan asos solinganidan buyon “Pushtun dominant” tamoyiliga tayanib keldi. Bu modelda pushtun qabilalari nafaqat harbiy kuch, balki siyosiy elitaning asosi sifatida ko‘rilgan. XIX asr oxirida amir Abdurahmonxon davrida yuritilgan “temir intizom” siyosati natijasida pushtun bo‘lmagan hududlar markaziy hukumatga majburan bo‘ysundirildi. Aynan shu davrda shimoliy hududlarga (tojik, o‘zbek va turkmanlar yashaydigan yerlarga) pushtun qabilalarini ko‘chirish orqali demografik muvozanatni o‘zgartirishga urinildi. Bu harakatlar tarixshunoslikda “Pushtunizatsiya” deb atalib, keyinchalik XX asrdagi etnik nizolarning tarixiy xotirasiga aylandi[1.158] Afg‘oniston

iyerarxiyasida etnik guruhlar o‘zlarining ijtimoiy funksiyalariga ko‘ra norasmiy, ammo barqaror o‘rinlarga ega bo‘lgan. Pushtunlar an’anaviy ravishda hukmdorlar va jangchilar qatlami hisoblangan bo‘lsa, tojiklar davlat boshqaruvining byurokratik apparati va madaniy hayotida yetakchilik qilganlar. Fors tilining (dari) saroy va ma’muriyat tili bo‘lishi tojiklarning ma’rifiy ta’sirini oshirgan. O‘zbeklar va turkmanlar mamlakatning shimoliy hududlarida dehqonchilik, chorvachilik va trans-chegaraviy savdo bilan shug‘ullanuvchi muhim iqtisodiy kuch hisoblangan. Biroq, ular markaziy siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridan uzoqlashtirilgan edi. Eng quyi pog‘onada esa hazoralar turgan bo‘lib, ular nafaqat etnik kelib chiqishi (mo‘g‘ulsimon), balki diniy mansubligi (shialik) tufayli ham muntazam ravishda ijtimoiy va iqtisodiy kamsitishlarga duch kelganlar. Bunday vertikal iyerarxiya jamiyatda “ustun millat” va “ikkinchi darajali millatlar” degan tushunchaning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Afg‘onistonda identifikatsiya faqat qon-qarindoshlik bilan emas, balki til omili bilan ham bog‘liq. “Forsiyvonlik” (fors tilida so‘zlashuvchi madaniy o‘zlik) ko‘p hollarda turli etnik guruhlarni (tojiklar, hazoralar, shahar pushtunlari) birlashtiruvchi omil bo‘lgan bo‘lsa, pushtun tili va “Pushtunvali” (an’anaviy odob kodeksi) pushtunlarni ajratib turuvchi asosiy belgi bo‘lib kelgan. XX asrning 60-yillarida qabul qilingan Konstitutsiyalar va modernizatsiya urinishlari bu farqlarni yo‘qotishga intilgan bo‘lsa-da, amalda etnik guruhlarning o‘z hududiy anklavlarida yashashi va markaziy hokimiyatning zaifligi bu chegaralarni yanada mustahkamladi. 1970-yillarning oxiridagi siyosiy beqarorlik va 1979-yildagi Sovet bosqini an’anaviy davlat iyerarxiyasini butunlay yakson qildi. Markaziy hukumat nazorati yo‘qolishi bilan mahalliy aholi xavfsizlik va resurslar uchun o‘z etnik jamoalari atrofida birlasha boshladi. Siyosatshunos Konrad Shetter ta’kidlaganidek, urush sharoitida etnik identifikatsiya odamlarning yashab qolish strategiyasiga aylandi. [5.25]

1.2 Fuqarolar urushi yillarida etnik omilning siyosiylanishi va qurolli mojarolar (1992–2021)

1992-yilda Afg‘onistonda kommunistik rejimning qulashi mamlakat tarixida yangi, yanada qonli bosqichni boshlab berdi. Agar avvalgi yillarda urush asosan “islom va kofirlik” (mujohidlar va sovet ittifoqi) o‘rtasidagi mafkuraviy kurash sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, 1992-yildan boshlab mojaro ochiqdan-ochiq etnosiyosiy xarakterga ega bo‘ldi. Bu davrda davlat institutlarining butunlay parchalanishi natijasida etnik identifikatsiya siyosiy hokimiyat va harbiy safarbarlikning yagona manbaiga aylandi. Kommunistik rejim ag‘darilgach, mujohidlar guruhlari o‘rtasida hokimiyatni taqsimlash bo‘yicha kelishuvga erishilmadi. Bu davrda etnik guruhlar o‘z qurolli legionlari yordamida mamlakatni ta’sir doiralariga bo‘lib yubordilar. Tojiklar yetakchisi Ahmadshoh Mas’ud va Burhonuddin Rabboniy boshchiligidagi “Jamiat-i-Islomi” o‘zbeklar sardori Abdul Rashid Do‘stum boshchiligidagi “Junbish-i-Milli”

hamda hazoralarning “Hizb-i-Vahdat” partiyalari pushtun bo‘lmagan kuchlarning ko‘p asrlik pushtun gegemonligiga qarshi chiqishini anglatardi. Qobul shahri turli etnik guruhlar nazoratidagi mahallalarga bo‘lindi va bu ko‘chalarda kechgan janglar etnik nafratni yangi bosqichga olib chiqdi. Siyosatshunos Barnett Rubin ta’kidlaganidek, bu davrda davlatning legitimligi yo‘qolishi natijasida “har bir guruh o‘z etnik anklavini himoya qilishni davlatdan ustun qo‘ya boshladi”.[2.271-280]

1994-yilda maydonga chiqqan “Tolibon” harakati Afg‘onistondagi etnosiyosiy manzarani tubdan o‘zgartirdi. Garchi harakat o‘zini sof islomiy va adolat o‘rnatuvchi kuch sifatida taqdim etgan bo‘lsa-da, uning ijtimoiy asosi va yetakchilari deyarli butunlay pushtunlardan iborat edi. Tolibonning g‘alabasi ko‘p hollarda pushtunlarning yo‘qotilgan siyosiy ustunligini qayta tiklash harakati sifatida qabul qilindi. Bunga javoban, tojiklarning “Shimoliy ittifoq” atrofida, o‘zbek va hazora guruhlari bilan birlashishi mamlakatni “Janubiy pushtunlar” va “Shimoliy guruhlar” degan ikki qarama-qarshi lagerga ajratdi. 1990-yillarning oxiridagi urushlar shunchaki diniy emas, balki “Shimol” va “Janub”ning etnik hududlari uchun kurashiga aylandi. AQSH boshchiligidagi koalitsiyaning Afg‘onistonga kirishi va Tolibon rejimining ag‘darilishi (2001-yil) etnik muvozanatni sun’iy ravishda tiklashga urinish davri bo‘ldi. Bonn konferensiyasi va yangi Konstitutsiya etnik guruhlar o‘rtasida hokimiyatni taqsimlashning kvota tizimini (masalan, prezident pushtun, birinchi vitse-prezident tojik, ikkinchi vitse-prezident hazora bo‘lishi kabi) joriy qildi. Biroq, bu tizim etnik birlashuvga emas, balki etnik elitalarning davlat resurslarini o‘z jamoalari foydasiga “talashiga” va korrupsiyaning kuchayishiga olib keldi. Etnik mansublik ishga joylashishdan tortib, xalqaro yordamlarni taqsimlashgacha bo‘lgan asosiy mezon bo‘lib qoldi. Bu holat davlat institutlarining ichdan yemirilishiga va 2021-yilda hukumatning kutilmagan darajada tez qulashiga sabab bo‘ldi.[4.138-142]. Fuqarolar urushi davomida etnik omil nafaqat ichki, balki mintaqaviy o‘yinchoqqa aylandi. Qo‘shni davlatlar Afg‘onistondagi o‘z strategik manfaatlarini himoya qilish uchun ma’lum bir etnoslarga tayandilar: Pokiston an’anaviy ravishda pushtun guruhlarini, Eron hazoralarni, Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiya esa tojik va o‘zbek yetakchilarini qo‘llab-quvvatladi. Bu “vositachilik urushlari” (proxy war) etnik guruhlar o‘rtasidagi ishonchsizlikni yanada chuqurlashtirdi va har qanday milliy kelishuvga erishishni qiyinlashtirdi. Ahmad Rashid ta’kidlaganidek, tashqi kuchlar tomonidan etnik guruhlarning qurollantirilishi Afg‘onistondagi fuqarolar urushini “tugamaydigan sikl”ga aylantirdi.[8.102]

1.3 Zamonaviy afg‘oniston: etnik inkluzivlik muammosi va barqarorlik istiqbollari.

2021-yil avgust oyida “Tolibon” harakatining hokimiyatga qaytishi Afg‘onistondagi etnosiyosiy muvozanatni tubdan o‘zgartirdi. AQSH boshchiligidagi koalitsiya kuchlari va respublika hukumatining ketishi bilan 20 yil davomida

shakllangan etnik kvotalar tizimi barham topdi. Bugungi kunda zamonaviy Afg‘oniston uchun etnik inklyuzivlik (barcha millatlarning boshqaruvda ishtiroki) nafaqat siyosiy talab, balki mamlakatning davlat sifatida yashab qolishining asosiy shartiga aylandi. Hozirgi vaqtda Afg‘onistonda shakllangan muvaqqat hukumat tarkibi xalqaro hamjamiyat va mahalliy siyosiy kuchlar tomonidan “eklyuziv” (ayirmachi) deb baholanmoqda. Garchi Tolibon rahbariyati hukumatni “umumafg‘on” deb atasalar-da, yuqori lavozimlarning mutlaq ko‘pchiligi pushtun millatiga mansub diniy yetakchilarga tegishli bo‘lib qolmoqda. Tojik, o‘zbek va hazora kabi yirik etnik guruhlarning qaror qabul qilish jarayonlaridan chetlashtirilishi mamlakat ichida kuchli ijtimoiy norozilikni va “Milliy qarshilik fronti” kabi qurolli harakatlarning jonlanishini keltirib chiqardi. Siyosatshunos Amin Saikal ta’kidlaganidek, “etnik xilma-xillikni inobatga olmagan har qanday rejim ertami-kechmi ichki qarshilik va legitimlik inqiroziga duch kelishi muqarrar”. [4.156-160]

Etnik inklyuzivlikning yo‘qligi Afg‘onistonning “Failed State” maqomida qolishiga sabab bo‘layotgan asosiy omillardan biridir. Davlat institutlarida etnik vakillikning yo‘qolishi markaziy hokimiyat bilan viloyatlar o‘rtasidagi aloqani uzib qo‘ydi. Ayniqsa, shimoliy hududlarda o‘zbek va tojik elitalarining quvg‘in qilinishi yoki ularning mulklarini musodara qilinishi bilan bog‘liq xabarlar etnik adovatning yangi to‘lqinini qo‘zg‘atmoqda. Bu esa mamlakatning yaxlitligiga tahdid solib, hududiy parchalanish xavfini oshiradi. Tadqiqotchi Robert Crews fikricha, Afg‘onistonni birlashtiruvchi yagona kuch bu “etnik gegemonlik emas, balki umummilliy manfaatlar uyg‘unligidir”.[9.325]

Afg‘onistonda barqaror tinchlikka erishish uchun bir necha yo‘nalishdagi islohotlar zarur deb ko‘riladi. Birinchidan, “Loya Jirga” (Xalq kengashi) kabi an’anaviy institutlarni zamonaviylashtirish orqali barcha etnik guruhlar tan oladigan konstitutsiyaviy tuzumni qayta tiklash. Ikkinchidan, hokimiyatni markazsizlashtirish (desentralizatsiya) -ya’ni mahalliy hokimiyat organlariga o‘z hududidagi etnik va madaniy xususiyatlardan kelib chiqib qaror qabul qilish huquqini berish. Bu model ayniqsa ko‘p millatli shimoliy viloyatlarda qurolli to‘qnashuvlar xavfini kamaytirishi mumkin.

XULOSA

Afg‘onistondagi ko‘p yillik fuqarolar urushi va siyosiy beqarorlikni tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, etnik omil mamlakatdagi mojarolarning ham sababchisi, ham uning natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada ko‘rib chiqilgan tarixiy va zamonaviy jarayonlar asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelish mumkin:

Afg‘oniston davlatchiligining an’anaviy “pushtun markazlashgan” modeli zamonaviy ijtimoiy-siyosiy voqelikka mos kelmay qoldi. XIX asrda shakllangan va XX asrda mustahkamlangan etnik iyerarxiya 1970-yillardan keyingi urushlar davrida butunlay parchalangan. Bugungi kunda tojiklar, o‘zbeklar, hazoralar va boshqa milliy

jamoalar endi o‘zlarini davlatning ikkinchi darajali fuqarolari sifatida ko‘rishni istamaydilar. Etnik o‘zlikni anglash darajasining o‘sishi har qanday siyosiy rejimdan hokimiyatni adolatli taqsimlashni va barcha millatlarning vakilligini ta’minlashni talab qilmoqda. Afg‘onistondagi fuqarolar urushining uzoq davom etishida etnik identifikatsiyaning siyosiylashuvi (etnosiyosat) hal qiluvchi rol o‘ynadi. Siyosiy elitalar va qurolli guruhlar rahbarlari o‘z hokimiyatlarini saqlab qolish uchun etnik nafrat va birdamlikdan safarbarlik quroli sifatida foydalandilar. Bu esa jamiyatda chuqur ishonchsizlikni keltirib chiqardi va milliy birdamlik (Afg‘on millati) g‘oyasining shakllanishiga to‘sqinlik qildi. Davlat resurslari uchun kurashning etnik tus olishi mamlakatni “etnik anklavlar”ga bo‘linib ketish xavfi ostida qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barfield, Thomas. Afghanistan: A Cultural and Political History. Princeton: Princeton University Press, 2010. P-398
2. Rubin, Barnett R. The Fragmentation of Afghanistan: State Formation and Collapse in the International System. 2nd edition. New Haven: Yale University Press, 2002. P-416
3. Rashid, Ahmed. Taliban: Militant Islam, Oil and Fundamentalism in Central Asia. New Haven: Yale University Press, 2000. P-274
4. Saikal, Amin. Modern Afghanistan: A History of Struggle and Survival. London: I.B. Tauris, 2004. P-360
5. Schetter, Conrad. Ethnicity and the Political Reconstruction in Afghanistan. Bonn: Center for Development Research (ZEF), 2005. P-30
6. Mousavi, Sayed Askar. The Hazaras of Afghanistan: An Historical, Cultural, Economic and Political Study. London: St. Martin's Press, 1997. P-282
7. Maley, William. The Afghanistan Wars. 3rd edition. New York: Palgrave Macmillan, 2021. P-372
8. Goodson, Larry P. Afghanistan’s Endless War: State Failure, Regional Politics, and the Rise of the Taliban. Seattle: University of Washington Press, 2001. P-280
9. Crews, Robert D. Afghan Modern: The History of a Global Nation. Cambridge: Belknap Press, 2015. P-384